



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 36 169 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- aprel holatiga, birlik	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik
Toshkent viloyati	37 179	36 169
Oqqo'rg'on tumani	965	892
Ohangaron tumani	916	958
Bekobod tumani	1 094	969
Bo'stonliq tumani	1 883	1 928
Bo'ka tumani	1 027	988
Quyi Chirchiq tumani	1 113	1 079
Zangiota tumani	4 563	4 480
Yuqori Chirchiq tumani	1 994	1 851
Qibray tumani	3 378	3 176
Parkent tumani	1 894	2 183
Piskent tumani	885	817
O'rta Chirchiq tumani	1 760	1 623
Chinoz tumani	1 048	965
Yangiyo'l tumani	1 661	1 671
Toshkent tumani	2 637	2 647
Nurafshon shahri	896	806
Olmaliq shahri	1 496	1 477
Angren shahri	2 051	1 972
Bekobod shahri	1 293	1 223
Ohangaron shahri	950	804
Chirchiq shahri	2 449	2 429
Yangiyo'l shahri	1 226	1 231

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Iqtisodiy faoliyat turlari




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-martida 1 897 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 776 ta, boshqa xizmatlarda 268 ta, sanoatda 234 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 197 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik
Toshkent viloyati	1 554	1 897
Oqqo'rg'on tumani	71	45
Ohangaron tumani	38	59
Bekobod tumani	51	62
Bo'stonliq tumani	53	111
Bo'ka tumani	47	64
Quyichirchiq tumani	50	49
Zangiota tumani	184	243
Yuqorichirchiq tumani	83	80
Qibray tumani	112	141
Parkent tumani	92	109
Piskent tumani	40	43
O'rta Chirchiq tumani	76	97
Chinoz tumani	43	52
Yangiyo'l tumani	59	104
Toshkent tumani	120	161
Nurafshon shahri	51	52
Olmalik shahri	55	73
Angren shahri	85	66
Bekobod shahri	65	66
Ohangaron shahri	35	41
Chirchiq shahri	94	121
Yangiyo'l shahri	50	58

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 50,1 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0.5 % punktga ko'paygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 946,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 26,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,3 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 159,4 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9 497,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 58,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 134,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Bo'ka (99,0%), Yuqori Chirchiq (98,7 %), Toshkent (96,7 %) va Oqqo'rg'on (93,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 726,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod (99,9 %), Ohangaron (99,8 %) va Chirchiq (99,8 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 7 214,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 86,0,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on (97,7 %), O'rtachirchiq (96,7 %), Parkent (95,5 %) va Bekobod (95,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 214,8 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 72,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on (81,2 %), Bo'ka (81,0 %), tumanlarida hamda Yangiyo'l shahrida (81,0 %) hamda Parkent (80,3 %), O'rta Chirchiq (77,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 133,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 32,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka (100,0 %), Bekobod (99,0 %) tumanlarida Yangiyo'l shahrida (97,6 %) va Qibray (94,8 %), Oqqo'rg'on (87,4 %) O'rta Chirchiq (86,0 %) tumanlarini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 512,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 60,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bekobod (100,0 %), Oqqo'rg'on (100,0 %), Bo'ka (99,4 %), Zangiota (94,9 %), Parkent (93,3 %), O'rta Chirchiq (91,7 %), Toshkent (89,4 %) tumanlarini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 28,0 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,7 % punktga kamaygan.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 55,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 0,3 % punktni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaygan.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,5 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlaridynamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 30,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida esa 37,4 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 6,5 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 57,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 58,0 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 12,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 7,6 % bo'lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 47,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 48,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 48,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 49,1 % yoki 0,8 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 4,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 2,9 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 37,2 % ni, sanoatda – 36,1 % ni va xizmatlar sohasida – 32,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 69,4 % ni, xizmatlar sohasida – 58,9 % ni va savdoda – 56,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 13,0 % ni, sanoatda – 9,1 % ni va xizmatlar sohasida – 8,2 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha ko'rayish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 29,2 % ni, qurilishda – 29,1 % ni va sanoatlar sohasida – 26,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yichao'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 72,6 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 71,7 % ni va savdoda – 67,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 8,9 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,2 % ni va xizmatlar sohasida – 6,2 % ni tashkil etdi.



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidano'tganhamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari vamanfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va
tadbirkorlik statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xudoynazarov
71 203-45-00 (4530)

Manzil:
100198, Toshkent viloyati,
Nurafshon shahar, Toshkent
yo'li ko'chasi, 90-uy